

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

REY BREDBERINING “VELTD” (SAVANNA) HIKOYASIDA TEXNOLOGIYALASHGAN KELAJAK VA OILA QADRIYATLARI TANAZZULINING POETIK TAHLILI

Olimova Odina To'xtasin qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: olimovaodina08@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0508-7397>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ilmiy fantast yozuvchi Rey Bredberining “The Veltd” (Savanna) hikoyasi texnologik taraqqiyot sharoitida oila qadriyatlarining tanazzulga yuz tutish muammosi nuqtayi-nazaridan tahlilga tortiladi. Hikoyadagi “aqlli uy”, savanna va sherlar kabi badiiy ramzlar orqali muallif texnologik qaramlikning bolalar ruhiyati va ota-ona munosabatlariga ta'sirini to'liq ochib beradi.

Kalit so'zlar: Ilmiy fantastika, Rey Bredberi, “The Veltd” hikoyasi, texnologik qaramlik, oila qadriyatlari, badiiy ramz, gumanistik yondashuv.

ПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИЗИРОВАННОГО БУДУЩЕГО И ДЕГРАДАЦИИ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАССКАЗЕ РЭЯ БРЭДБЕРИ «ВЕЛЬД» («САВАННА»)

Олимова Одина Тухтасин кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Ишхокхона Ибрата, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье рассказ Рэя Бредбери «Вельд» анализируется с точки зрения проблемы деградации семейных ценностей в условиях технологического прогресса. На примере художественных символов — «умного дома», саванны и львов — автор раскрывает влияние технологической зависимости на психику детей и отношения между родителями и детьми.

Ключевые слова: Научная фантастика, Рэй Бредбери, рассказ «Вельд», технологической зависимости, семейные ценности, художественный символ, гуманистический подход.

A POETIC ANALYSIS OF THE TECHNOLOGIZED FUTURE AND THE DECLINE OF FAMILY VALUES IN RAY BRADBURY'S THE VELDT (“THE SAVANNAH”)

Olimova Odina To'xtasin qizi

Namangan State Institute of Foreign Languages after named Ishoqxon Ibrat, Independent Researcher.

Abstract.

The article analyzes Ray Bradbury's short story “The Veltd” from the perspective of decline of family values under conditions of technological progress. Through artistic symbols such as the “smart house”, the veltd, and the lions the author reveals the impact of technological dependency on children's psyche and parent-child relationships.

Keywords: Science fiction, Ray Bradbury, “The Veltd” story, technological dependency, family values, artistic symbol, humanistic approach.

Kirish. XX asr Amerika adabiyotining eng yirik adiblaridan biri sifatida e'tirof etiladigan yozuvchi Rey Bredberi o'zining ilmiy-fantastik roman va hikoyalari orqali jamiyat va inson tabiatining murakkab, o'zaro bog'liq jihatlarini nozik mahorat bilan tasvirlaydi. Ijodkor o'z asarlarida texnologiyani emas, balki texnologiya rivoj topgan jamiyatda insonning ichki dunyosi, qadriyatlari va xulq-atvoridagi o'zgarishlar g'oyasini asar markaziga qo'yadi. Shu jihatdan u ilmiy fantastika janriga yangicha, gumanistik yondashuv olib kirgan.

Uning ijodi faqat badiiy adabiyot sifatida baholanibgina qolmay, balki bugungi kunda ham media va insoniylik masalalari atrofida ko'tarilgan murakkab bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bredberining asarlari shaxsiy erkinlik va o'zlikni anglash kabi falsafiy mavzularni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining ijodiy faoliyati davomida 30 dan ortiq asar va 600 dan ziyod qisqa hikoyalar, bir qancha televizor dasturlari va kinofilmlarga mualliflik qildi. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan “The Veltd” (“Savanna”) hikoyasi ham “The Illustrated Man” (“Rasm solingan odam”) hikoyalar to'plamidan o'rin olgan bo'lib, undagi hikoyalarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy syujet — 1950-yillarda Viskonsin bo'ylab piyoda sayohat qilayotgan hikoyachining butun tanasi chizilgan suratlar bilan qoplangan g'aroyib bir odam bilan uchrashuvi haqidagi voqeadir.

Asosiy qism. D. Mogen Bredberi ijodining asosiy g'oyalarini tahlil qilar ekan, u “Frankenshteyn” asari bosh g'oyasi

yo'zuvchi ijodida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Sodda va ezgu niyatli olim Viktor Frankenshteyn kabi inson ham eng yaxshi maqsadlarni ko'zlagan holda texnologik mo'jizalarni yaratishi mumkin. Biroq, ularning salohiyati va chegaralarini chuqur anglab yetilmasa, "taraqqiyot" deb ataluvchi eng buyuk xitrolar ham inson halokatiga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Uning fikricha, Bredberi bu g'oyani o'zining kelajak tashvishlarini ifodalash vositasi sifatida qo'llab, Frankenshteyn yaratgan "maxluq" timsolini telefon hamda televizor singari ko'rinishidan zararsiz va oddiy ko'ngilochar vosita hisoblanadigan qurilmalarda, shuningdek, totalitarizm hamda bosqinchilik singari dahshatli hodisalarda gavalantiradi. Olim mazkur mavzuga bag'ishlangan, texnologik qulayliklarga haddan tashqari qaramlikning insonning ma'naviyatiga ta'sirini hamda oila qadriyatlarining yemirilishini dahshatli tarzda namoyon etadigan hikoya sifatida "The Illustrated Man" ("Rasm solingan odam") to'plamiga kiritilgan "The Veldt" ("Savanna") hikoyasini misol qilib oladi. Mogen ta'kidlashicha, oddiy amerikalik oila markazida "maxluq" obrazini yaratish orqali Bredberi Frankenshteyn afsonasini bevosita oila muhitiga olib kiradi [1]. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu hikoya yozilgan davrda (1950-yil) endigina ommalashib borayotgan ko'ngilochar vositaning kelajak jamiyati uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan xavf va ko'ngilsizliklarini murakkab badiiy timsol orqali aniq ochib beradi. Fikrimizcha, Bredberi boshqa asarlarida uchraganidek texnologiyani tanqid qilish bilangina cheklanmaydi, u o'quvchi e'tiborini o'zi sezmaganda holda texnologiyaga qaram bo'lib qolgan oilaning izdan chiqqan ruhiy holatiga qaratishga undaydi.

Bugungi kunda Bredberining "The Veldt" ("Savanna") hikoyasi texnologiya taraqqiy topgan kelajak sharoitida oila qadriyatlarining tanazzulga yuz tutish muammosini badiiy tahlil qilish nuqtayi nazaridan alohida dolzarblik kasb etadi. XXI asrda sun'iy intellekt, "aqli uy" tizimlari hamda virtual hayot inson yashash tarziga, xususan, oilaviy munosabatlarga chuqur singib borishi, jamiyatning asosiy bo'g'imi hisoblangan oilada ota-onaning vazifalari texnik vositalarga o'tishi va farzandlarning virtual muhitga qaramligi kabi muammolar zamonaviy jamiyatshunoslik va psixologiya sohalarida faol muhokama qilinmoqda. Yo'zuvchi esa ushbu jarayonlarni o'zining "The Veldt" ("Savanna") hikoyasida allaqachon badiiy bashorat qila turib, texnologiyaning oilaning ichidan yemirishi, ota-ona va farzand o'rtasidagi hissiy-ma'naviy rishtalarning uzilishini nozik badiiy vositalar — ramz, metafora, badiiy detallar vositasida aks ettirgan. Bu esa hikoyani nafaqat mavzu darajasida, balki uning poetik talqin xususiyatlari jihatidan ham chuqur o'rganishni taqozo etadi. Shu bilan birga, ushbu yo'zuvchi ijodi va uning qisqa hikoyalari o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan bo'lib, asardagi texnologiyalashgan kelajak obrazi bilan oila qadriyatlarining yemirilib bitishi o'rtasidagi badiiy-estetik bog'liqlik poetik talqin darajasida hali tahlil qilinganicha yo'q.

Ushbu hikoya Bredberining avvalgi bir nechta asarlarida uchraydigan asosiy g'oyani, ya'ni mashinalar insoniy mehr-muhabbat va ota-onaning g'amxo'rlikining o'rnini hech qachon muvaffaqiyatli tarzda bosa olmaydi [2]. "The Veldt" ("Savanna") hikoyasi "odatiy aqli uy"ning real tasvirlar hamda ularga mos tovush va hidlarni hosil qilishga qodir bo'lgan, fikrlar orqali boshqariladigan golografik plazma devorlardan tashkil topgan bolalar xonasi to'g'risida hikoya qiladi [3]. Hikoyadan ma'lumki, bu xona butun uyning yarim puliga tushgan bo'lsa-da, uy sohibi bolalarining bundan ham ortig'iga loyqligini ta'kidlab, bu uy bolalariga xursandchilik bera olishiga astoydil ishonadi. Ammo keyinroq, bolalar o'sha xonaning katta ekranlariga shunchalik bog'lanib qolishadiki, o'z ota-onalaridan-da ustun ko'rish darajasiga borib yetadilar. Lidiya bolalaridagi bu o'zgarishning salbiy oqibatlarini anglash barobarida eri Jorjga bu haqda shikoyat qiladi, ammo Jorj esa bunga javoban: "Axir bu uyni o'zimiz hech narsa qilishga hojat qolmasin deb sotib olgan edik-ku" ("I thought that's why we bought this house, so we wouldn't have to do anything" [4]), deydi. Bolalar Afrika savannasi va undagi yirtqich sherlar tasvirini xonada aks ettirishganda esa Lidiya va Jorj birmuncha tashvishga tushishadi va bu xonani yopib qo'yishga qaror qilishadi, lekin bolalar bu uchun ota-onasidan qattiq g'azablanishadi. Aslida bularning bari vaqtida berilmagan mehr va e'tibor masalalariga borib taqalardi. Hedlilar oilasining yaqin do'sti psixolog Devid Makklin bu haqda xabar topgach, shunday deydi: "Sizlar bu uy va xonaning siz va turmush o'rtog'ingizning bolalarga beradigan mehr borasidagi o'rningizni egallab olishiga yo'l qo'ydingiz. Bu xona ular uchun o'z ota-onalaridan ham muhimroq bo'lib qoldi... Jorj, hayotingizni o'zgartirishingiz zarur. Ko'pchilik singari siz ham hayotingizni qulay yaratgan texnologiyalar asosiga qurgansiz" ("You've let this room and this house replace you and your wife in your children's affections. This room is their mother and father, far more than important in their lives than real parents... George, you'll have to change your life. Like many others, you've built it around creature comforts" [5]). Afsuski, bu maslahatlarga amal qilishga Lidiya va Jorjda vaqt qolmagan edi, chunki haqiqiy ota-ona mehridan bebahra bolalar ana shu "mehr"ni bergan xonani yo'qotishdan qo'rqib, mudhish jinoyatga qo'l uradilar. Psixolog Devid Makklin bu uyga tashrif buyurgan chog'da, bolalar xonasi ostonasida endigina to'yib ovqatlanigan va suv ichishga ketayotgan sherlar va o'laksaxo'rlar aks etgan manzaraga ko'zi tushadi va hammasiga tushunadi. Bu o'rinda yo'zuvchi "The Veldt" ("Savanna") hikoyasida televizorlar yoki texnologiya keltirgan qulayliklarni to'g'ridan-to'g'ri qoralamaydi, bil'aks undan noto'g'ri va haddan ortiq foydalanish masalalarini tanqid qiladi. Uning fikricha, bu kabi vositalar beqiyos va takrorlanmas hisoblangan ota-ona mehr-muhabbat-yu, oilaviy totuvlik ildiziga bolta uruvchi unsur bo'lib qolmasligi kerak. Hikoyaning g'oyaviy mazmuni bilan bir qatorda, uning badiiy-estetik qiymati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, asarning poetik xususiyatlarini tahlil qilish orqali Rey Bredberining badiiy mahorati, obrazlar tizimi, ramziy ifodalar va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish usullari yoritiladi. Hikoya an'anaviy syujet qurilishiga ega bo'lib, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim bosqichlaridan iborat. Ekspozitsiyada o'quvchi Hadley oilasi va ularning to'la-to'kis avtomatlashtirilgan va zamonaviy uy bilan tanishtiriladi. Ayniqsa, bolalar xonasidagi g'ayrioddiy texnologik imkoniyatlar tasvirlanib, hikoyaning asosiy muammosiga kirish uchun zamin yaratiladi.

Tugun bosqichida voqealar bolalar xonasida so'nggi paytlarda muntazam ravishda Afrika savannasi va sherlar manzarasining namoyon bo'lishi hamda bu holatdan ota-onaning tobora tashvishga tushishi bilan boshlanadi. Voqealar rivoji davomida Jorj va Lidiya ushbu xonani o'chirib qo'yishga hamda bu uydin voz kechishga qaror qiladilar. Biroq bu xonaga qaram bo'lib qolgan Piter va Vendi bunga qat'iy qarshilik ko'rsatadilar. Psixolog Devid Makklin obrazi orqali ham

yo'zuvchi ota-onalarni texnologiyaning salbiy ta'siri haqida ogohlantirishga urinadi.

Hikoya kulminatsiyasida bolalarning zaharlangan va nosog'lom fikrlashi natijasida ota-onalar bolalar xonasiga qamab qo'yiladi, virtual olamdagi sherlar esa reallikka chiqarilib, Jorj va Lidiya o'ldiriladi. Bu hikoyaning eng keskin dramatik nuqtasi hisoblanadi.

Yechim bosqichida uyga kelgan psixolog savannada endigina ovqatlanib bo'lgan sherlar manzarasini hamda xotirjam bog'da choy ichib o'tirgan bolalarni ko'rgach, voqeaning asl mohiyatini anglaydi. Shu orqali muallif voqeani ochiq, ammo kuchli ramziy yakun bilan tugallaydi. Muallif voqealar keskinligini bosqichma-bosqich kuchaytirib boradi hamda nihoyani kutilmagan, ammo mantiqiy tarzda yakunlaydi. Bunday kompozitsion qurilish oila qadriyatlariga putur yetkazuvchi kuch sifatida texnologik qaramlikni va ma'naviy jihatdan nosog'lom kelajak jamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu hikoyada ramzlar yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadini ochib berishda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Hikoyadagi asosiy ramz sifatida barcha qulaylik va shart-sharoitlarga ega **"aqli uy"** tushunchasi namoyon bo'ladi. Garchi u baxt keltirishi kutilgan "jannatmakon" maskan hisoblansa-da, aynan shu uy bir oilaning barbod bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu orqali yozuvchi uy timsolida baxt tushunchasining nisbiy ekanligiga, inson har doim ham baxtga moddiy vositalar orqali erisha olmasligiga ishora qiladi. Bolalar xonasi esa bolalar ruhiyatini boshqaruvchi xavfli kuch — me'yordan ortiq texnologiyaga qaramlikning badiiy tasvirini beradi. Afrika savannasi ramzi orqali jazirama cho'l, qurigan o'tlar va cheksiz kenglik inson qalbidagi qo'rquv hamda yovuzlikni ifodalaydi. Bolalardagi ma'naviy inqiroz ham aynan shu ramz vositasida namoyon bo'ladi. Sherlar esa bolalarning ota-onaga nisbatan yashirin, ammo kuchli nafrati, adovati va zo'ravonlik istagining timsoli sifatida gavdalanadi. Bu timsol texnologiyaning vayronkor kuchini fojiaiy yakun orqali o'quvchiga namoyish etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Rey Bredberining **"The Veldt" ("Savanna")** hikoyasi puxta syujet qurilishi, yaxlit kompozitsiyasi hamda boy ramzlar tizimi bilan ajralib turadi. Yozuvchi qator ramzlar orqali kelajak jamiyati duch kelishi mumkin bo'lgan texnologiyaga haddan tashqari qaramlik hamda oilaviy munosabatlarda texnologiyaning ustun mavqega ega bo'lishi kabi muammolarni yuksak badiiy mahorat bilan yoritadi. Hikoyaning poetik xususiyatlari uning g'oyaviy-badiiy mazmunini yanada chuqurlashtirib, o'quvchini zamonaviy jamiyatda texnologiya va insoniy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyat haqida mushohada yuritishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mogen D. *Ray Bradbury*. – Boston: Twayne Publishers, 1986. – P. 98.
2. Mambrol N. Analysis of Ray Bradbury's "The Veldt" // *Literary Theory and Criticism*. – 2022. – 18 April.
3. Mengelling M. E. *The Machineries of Joy and Despair: Bradbury's Attitudes toward Science and Technology*. – P. 93.
4. Bradbury R. *The Illustrated Man*. 30th ed. – London: HarperVoyager, 2008. – P. 14.
5. Bradbury R. *The Illustrated Man*. 30th ed. – London: HarperVoyager, 2008. – P. 25.
6. Linkfield T. P. The Fiction of Ray Bradbury: Universal Themes in Midwestern Settings // *Midwestern Miscellany*. – 1980. – Vol. 8. – P. 94–101.
7. Weller S. *The Bradbury Chronicles: The Life of Ray Bradbury*. – New York: Harper Perennial, 2005.
8. Baxter S. *Martian Chronicles: Narratives of Mars in Science and SF* // *Foundation: The Review of Science Fiction*. – 1996. – Vol. 5. – P. 5–16.
9. Eller J. *Ray Bradbury Unbound*. – Champaign: University of Illinois Press, 2014.